

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK RIVOJLANISHINING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI

LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

¹Ollokulova Feruza
Mansurovna

¹Termiz davlat universiteti doktoranti, PhD.
E-mail: ollokulovaf@tersu.uz

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishining huquqiy va institutsional asoslari tadqiq etilgan. Mamlakatda DXSh munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, vakolatli institutlar faoliyati hamda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida DXSh loyihalarini boshqarishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish, risklarni samarali taqsimlash va loyihalarni raqamli monitoring qilish tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the legal and institutional foundations of public-private partnership (PPP) development in Uzbekistan. The study analyzes the regulatory framework governing PPP relations, the activities of authorized institutions, and the recent reforms implemented in this sphere. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to improve institutional governance mechanisms, strengthen investor protection, enhance risk-sharing arrangements, and develop digital monitoring systems for PPP projects in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ davlat-xususiy sheriklik, DXSh, investitsion faollik, huquqiy asoslar, institutsional rivojlanish, infratuzilma loyihalari, xususiy investitsiyalar, fiskal majburiyatlar, davlat boshqaruvi, investitsion jozibadorlik.

❖ public-private partnership, PPP, investment activity, legal framework, institutional development, infrastructure projects, private investment, fiscal obligations, public governance, investment attractiveness.

Kirish.

Mamlakatimizda DXSh munosabatlari investitsion faollikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishni barqaror sur‘atlarda rivojlantirish sohadagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishni taqozo etmoqda. Iqtisodiy islohotlarni takomillashtirishning joriy

bosqichida DXSh rivojlanishini eng faol fazasi sifatida e‘tirof etish mumkin. Bunday deyishimizga sabab, ushbu davrda DXSh munosabatlarini tartibga solishda qator qonunchilik me‘yorlari ishlab chiqilib, sohaga investitsiyalarni jalb etishning mustahkam huquqiy poydevori yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat-xususiy sheriklik

to'g'risida"gi qonun davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq yagona qoida va jarayonlarni belgilovchi bazaviy hujjat hisoblanadi [1]. Qayd etish kerakki, qonun qabul qilinishidan avval sohani tartibga solish va rivojlantirishga doir muhim qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekistonda DXSh munosabatlarini rivojlantirishning dastlabki huquqiy hujjatlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrdagi PQ-3980-son qarori hisoblanadi [2]. Ushbu qarorga muvofiq tashkil etilgan Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi mamlakatda DXSh siyosatini amalga oshirish, loyihalarni tashabbus qilish, baholash, muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'yicha vakolatli organ sifatida faoliyat yurita boshladi. Natijada, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmi shakllantirildi hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda energetika, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va kommunal xo'jalik sohalarida davlat-xususiy sheriklik asosida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, risklarni samarali taqsimlash, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, investorlar uchun institutsional rag'batlarni kuchaytirish va hududlar kesimida DXSh loyihalarining muvozanatli rivojlanishini ta'minlash masalalari o'z yechimini kutayotgan muhim ilmiy-amaliy muammolar qatoriga kiradi. Mazkur holatlar davlat-xususiy sheriklikning investitsion faollikni oshirishdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, milliy amaliyotdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish masalalari so'nggi yillarda xalqaro ilmiy hamjamiyatning e'tibor markazida bo'lib, ayniqsa infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish nuqtai nazaridan keng tadqiq etilmoqda.

Amerikalik iqtisodchi Eduardo Engel, Ronald Fischer va Alexander Galetovic tadqiqotlarida DXSh loyihalarining muvaffaqiyati davlat tomonidan yaratilgan huquqiy kafolatlar, shaffof tender mexanizmi hamda risklarni optimal taqsimlash tizimiga bog'liqligini asoslaydilar. Ularning fikricha, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik investitsiya risklarini kamaytirib, infratuzilmaviy loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi [3]. Barry Bozeman va Emily Johnson DXSh loyihalarida jamoatchilik manfaatlari va investorlar manfaatlarini muvofiqlashtirish masalasiga e'tibor qaratib, samarali institutsional mexanizm ijtimoiy qiymat yaratish va davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omili ekanligini qayd etadilar [4]. Belgiyalik olim Koen Verhoest hamda daniyalik tadqiqotchi Ole Helby Petersen turli mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilib, DXShni boshqarishning markazlashgan va markazlashmagan modellari samaradorligi institutsional salohiyat darajasi bilan bevosita bog'liqligini aniqlagan. Mualliflar maxsus vakolatli agentliklar faoliyat yuritadigan mamlakatlarda loyihalar natijadorligi yuqoriroq ekanligini asoslaydilar [5]. Robert Geddes va uning hammualliflari DXShning innovatsion moliyalashtirish mexanizmini o'rganib, kapital bozorlarining rivojlanishi va institutsional investorlar ishtirokining kengayishi infratuzilma loyihalariga xususiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi [6].

Rossiyalik olim Boychuk DXShning investitsion mexanizmini tadqiq qilib, hududlarda loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mintaqaviy investitsiya dasturlari, budget barqarorligi va makroiqtisodiy omillar muhim rol o'ynashini asoslaydi. Muallif xususiy investorlar qarorlariga investitsiya hajmi, shartnoma muddati va loyiha turi sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [7]. Teslenko Rossiyada DXShning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish orqali uni budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishning samarali vositasi sifatida baholaydi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy tartibga solishdagi ayrim cheklovlar va institutsional muammolar DXSh salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilayotganini ta'kidlaydi [8]. Klimenko esa Rossiya hududlarida DXSh rivojlanishini baholash orqali davlat va biznes hamkorligining samaradorligi ko'p jihatdan mintaqaviy boshqaruv sifati hamda institutsional infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liq ekanligini aniqlagan [9]. Rossiya DXSh markazi ekspertlari o'z tadqiqotlarida DXShni infratuzilmaviy risklarni davlat va biznes o'rtasida adolatli taqsimlash imkonini beruvchi moslashuvchan instrument sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, aynan risklarni samarali taqsimlash DXShning davlat xaridlari tizimiga nisbatan ustunligini ta'minlaydi [10].

Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining samarali rivojlanishi, eng avvalo, mustahkam huquqiy baza, rivojlangan institutsional muhit, manfaatdor tomonlar o'rtasida risk va javobgarlikning oqilona taqsimlanishi hamda investorlarga qulay biznes sharoitlarini yaratishga bog'liq. Xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlarida DXShning muvaffaqiyati asosan shaffof boshqaruv, davlat kafolatlari, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi va institutsional salohiyat bilan izohlangan bo'lsa, rossiyalik

tadqiqotchilar e'tiborni ko'proq mintaqaviy boshqaruv sifati, budget barqarorligi va normativ-huquqiy tartibga solishning amaliy jihatlariga qaratganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining DXSh sohasini rivojlantirishga oid qaror va farmonlari tizimli ravishda o'rganildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qarori [11] mamlakatda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining huquqiy va institutsional asoslarini yanada takomillashtirish, xususiy investitsiyalarni keng jalb etish hamda iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan strategik hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur qarorda belgilangan ustuvor vazifalar "O'zbekiston-2030" strategiyasida DXSh mexanizmini iqtisodiy rivojlanishning muhim instrumentlaridan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan uzviy bog'liqdir. Qarorga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik loyihalariga 2030-yilga qadar kamida 30 mlrd AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadli ko'rsatkichini ta'minlash, hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatli tajribani boshqa sohalarga tatbiq etish belgilangan. Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi

tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 900 megavatt bo'lgan uchta zamonaviy fotoelektr stansiyasini barpo etish loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Navoiy viloyati Tomdi tumanida esa 500 megavattlik shamol yelektr stansiyasining birinchi bosqichi qurib muvaffaqiyatli bitkazildi. Shuningdek, Xitoyning "China Gezhouba Group" kompaniyasi tomonidan Buxoro va Qashqadaryoda umumiy quvvati 1000 megavattlik quyosh stansiyalarining birinchi bosqichi qurilishi yakunlandi. Dastlabki hisob kitoblarga ko'ra, jami qiymati 2 milliard dollarlik ushbu stansiyalar to'liq ishga tushsa, ikki millionta xonadon uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlanadi, 2 milliard kub metr tabiiy gazni tejash, sanoat va xizmatlar sohasida 4 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi "O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-307-son qarorni qabul qilinishi natijasida DXSh loyihalalarini moliyalashtirishning yangicha mexanizmi joriy etildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida ETTB boshqaruvida bo'lgan 5 yil muddatga (keyinchalik uzaytirish sharti bilan) O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish bo'yicha anglashuv memorandumini imzolandi va tegishli biznes-reja ishlab chiqildi. Memorandumga ko'ra, jamg'arma faoliyatini boshqarish uchun YeTTB tomonidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Jamg'armani boshqarish guruhini tuzish hamda jamg'armani boshqarish guruhi o'z faoliyatida YeTTBga hisobdor bo'lishi belgilangan.

Mazkur mexanizm jamg'arma mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni ta'minlash va investitsion jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, boshqaruvning markazlashgan

modeli loyiha risklarini kamaytirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Ushbu, jamg'armani YeTTB tomonidan jalb etiladigan 10 mln yevro miqdoridagi grant va O'zbekiston Respublikasiga taqdim yetiladigan 10 mln yevro miqdoridagi kredit mablag'lari hisobidan shakllantirish belgilangan. Jamg'arma tomonidan tender asosida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha ularning konsepsiyasi, moliyaviy modeli, loyihani baholash, tender hujjatlari va DXSh bitimlarini ishlab chiqish uchun maslahatchilar va konsalting kompaniyalarini jalb qilish hamda tender jarayonlarini tashkil qilish va o'tkazish, DXSh loyihalari bilan ishlaydigan mahalliy mutaxassislarni o'qitish va DXSh sohasini rivojlantirish bilan bog'liq boshqa maqsadlar uchun mablag'lar ajratiladi. Jamg'arma hisobidan konsultantlarni YeTTBning ichki xarid qoidalariga muvofiq jalb qilinadi hamda DXSh loyihalari doirasida Jamg'armadan ajratilgan mablag'lar, qoida tariqasida, tender savdolari natijasida aniqlangan xususiy sheriklar tomonidan Jamg'armaga qaytarilishi ko'zda tutilgan. Ushbu qarorga muvofiq DXSh loyihalarini moliyalashtirishning quyidagi tartibi o'rnatildi:

- Jamg'arma tomonidan umumiy qiymati 10 mln AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan DXSh loyihalari bo'yicha konsultantlar xizmati moliyalashtiriladi;

- umumiy qiymati 10 mln AQSh dollari yekvivalentidan ortiq bo'lgan DXSh loyihalari «SOURCE» xalqaro platformasida joylashtirib boriladi;

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Jamg'arma tomonidan konsultantlar xizmatlari moliyalashtiriladigan DXSh loyihalari ro'yxatini YeTTB bilan kelishgan holda har yili 1 noyabrga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritib boradi va ushbu ro'yxat har yili 1-dekabrga qadar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

YeTTB tomonidan ajratiladigan qarz mablag'larini qaytarish, foiz, bir martalik boshlang'ich va boshqaruv, majburiyat uchun

to'lovlarni amalga oshirishning quyidagi prognoz jadvali ishlab chiqilgan (1-jadval).

1-jadval


YeTTB tomonidan ajratiladigan qarz mablag'larini qaytarish, foiz, bir martalik boshlang'ich va boshqaruv, majburiyat uchun to'lovlarni amalga oshirishning prognoz jadvali*

N ^o	Ko'rsatkichlar	Shartlar
1	Qarz summasi	10 million AQSh dollari
2	Qarz muddati	12 yil
3	Imtiyozli davr	4 yil
4	Foiz stavkasi	6 oylik Yeuribor + 1,0 %
5	Majburiyat uchun to'lov	0,50 % (o'zlashtirilmagan qarz miqdoridan)
6	Bir martalik boshlang'ich to'lov	1,0 % (umumiy qarz miqdoridan)
7	Bir martalik boshqaruv uchun to'lov	4,0 % (umumiy qarz miqdoridan)

*<https://lex.uz/docs/6610831> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Hududlar kesimida kichik va o'rta hajmdagi eng ko'p loyihalar Farg'ona, Andijon, Samarqand viloyatlarida amalga oshirilayotgan bo'lsa, eng yirik loyihalar Buxoro viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Samarqand viloyatiga qissasiga to'g'ri keladi (1-rasm). Taxlillar ko'rsatishicha 2021-2023-yillarda Buxoro viloyatida muqobil energiya resurslarini ishlab chiqarish borasida tarixiy va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Saudiya Arabistonining Acwa Power kompaniyasi Peshku va G'ijduvon tumanlarida har birining quvvati 500 MVt bo'lgan ikkita shamol elektr stansiyalari qurilish bo'yicha

loyihalarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari kompaniyasi bilan loyihani amalga oshirish uchun 25 yillik shartnoma imzolangan bo'lib, ushbu shamol elektr stansiyalarini moliyalashtirish xalqaro moliya institutlari ko'magida amalga oshiriladi. Loyiha bo'yicha dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 1 GVt (1000 MVt) quvvatga ega stansiyalar xissasiga respublikada ishlab chiqarilayotgan 6,3 foiz elektr energiyasiga to'g'ri keladi ushbu stansiyalar yiliga 3,6 milliard KVt elektr energiyasi ishlab chiqaradi va buning natijasida (yiliga) 1,1 mlrd kub tabiiy gazni iste'mol qilish iqtisod qilinadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarini mintaqaviy tarkibi (2025-yil 1-yanvar holatiga, trln. so'm)¹

¹<https://www.imv.uz/announcements/category/elonlar> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Shu bilan birga, shamol elektr stansiyalari 1 million xonadon xo'jaligini elektr energiyasi bilan ta'minlashi alohida qayd etilgan [12]. Davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish va tartibga solish mexanizmini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 558-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2024-yildan boshlab har yili bir marotaba davlat-xususiy sheriklik loyihalari bilan bog'liq davlatning to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilib boradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30 oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 720-son qaroriga asosan "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom quyidagi tartiblarni belgilaydi:

DXSh loyihalarini dastlabki baholash, tashabbus qilish, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ko'rib chiqish va kelishish;

DXSh loyihalarining tanlov hujjatlarini ishlab chiqish va kelishish, davlat-xususiy sheriklik shartnomasini tuzish;

DXSh loyihalarini amalga oshirishda yer uchastkalari va mulkiy komplekslarni taqdim etish;

DXSh loyihalari reyestrini yuritish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish va hisobot taqdim etish.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomda DXSh loyihalari doirasida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash, ta'mirlash va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni

ta'minlash manbalari ko'rsatilgan. Nizomda davlat byudjetidan subsidiyalar va kreditlar ajratish, kredit liniyalarini ochish, byudjet tizimi mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash tartibi belgilangan. Manfaatdor vazirliklar va idoralar hamda hokimiyatlarga umumiy qiymati 10 mln. dollardan ortiq bo'lgan DXSh loyihalarini amalga oshirishda xalqaro "SOURCE" platformasiga ulanish orqali investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va xalqaro investorlarni jalb qilish bo'yicha choralar ko'rish topshirilgan bo'lib, "SOURCE"da DXSh loyihasi konsepsiyasi, tender hujjatlari va bitim shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtiriladi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish sharoitida DXSh munosabatlarining iqtisodiy mohiyatini tizimli tadqiq etish, uning investitsion jarayonlarga ta'sirini baholash va rivojlantirish istiqbollarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki investitsion faollikning barqaror sur'atlarda o'sishi iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlar raqobatbardoshligini oshirish hamda aholi turmush farovonligini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishining huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish DXSh loyihalarini boshqarishning yagona raqamli platformasini joriy etish, loyihalarni tanlash va baholash mezonlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, risklarni taqsimlashning aniq mexanizmini belgilash hamda vakolatli davlat organlarining institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali amalga oshirilishi kerak deb o'ylaymiz. Shu bilan birga, investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kengaytirish, DXSh loyihalarining shaffofligini oshirish va hududlar kesimida institutsional

qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish mamlakatda investitsion faollikni rag'batlantirish va DXSh munosabatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. DXShning huquqiy-institutsional asoslari davlat, biznes va jamiyat manfaatlarini uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv tizimi sifatida shakllantirilishi, bunda institutsional samaradorlik, huquqiy barqarorlik va investitsion jozibadorlik o'zaro uzviy bog'liq elementlar sifatida qaralishi zarur.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik amaliyoti davlatning investitsion imkoniyatlarini kengaytirish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish hamda xususiy sektorning resurslari va tajribasidan samarali foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa,

transport, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar va raqamli infratuzilma kabi strategik tarmoqlarda DXSh davlatning moliyaviy "yuki"ni kamaytirish bilan bir qatorda xizmatlar sifati va ulardan foydalanish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishining huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, loyihalarni tanlash va monitoring qilishning shaffof mexanizmini joriy etish hamda vakolatli institutlar faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish DXShning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, hududlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3980-son qarori.
3. Engel E., Fischer R., Galetovic A. *Public-Private Partnerships for Infrastructure Development: Principles, Practices and Challenges*. – Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2023. – 37 p.
4. Bozeman B., Johnson E. *Public Values in PPPs: Aligning Stakeholder Interests in Policy Implementation* // *Public Administration Review*. – 2024. – [Online]. – Available at: Wiley Online Library.
5. Verhoest K., Petersen O.H. *Governance Models in Public-Private Partnerships: Comparative Case Studies*. *Public Management Review*, 2023. – 1235 p.
6. Rouhani O.M., Geddes R.R., Gao H.O., Bel G. *Social welfare analysis of investment public-private partnership approaches for transportation projects* // *Transportation Research Part A: Policy and Practice*. – 2016. – Vol. 88. – P. 86-103.
7. Boychuk A.V. *Investment Mechanisms for Public-Private Partnerships* // *Progressive Economy*. – 2024. – № 7. – P. 93-105. – DOI: 10.54861/27131211_2024_7_93.
8. Teslenko I.B. *Public-Private Partnership in Russia: Current State, Problems, and Development Prospects* // *The Sustainable Development of the Entrepreneurial Economy in the Fifth Industrial Revolution*. – World Scientific, 2026. – Ch. 43. – P. 505-514.
9. Klimenko A.A. *Public-Private Partnership in Russia: Problems of Regional Development*. *International Journal of Advanced and Applied Sciences*, Vol. 8, No. 7, 2021.
10. *Public-Private Partnerships in Russia* // National PPP Center of Russia. *Analytical Digest*. – 2024.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-son qarori.
12. <https://minenergy.uz/ru/lists/view/32> - O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining rasmiy veb sayti ma'lumotlari.